

## QIYIN TARBIYALANADIGAN BOLALAR BILAN ISHLASH: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

**Bahodirova Gulibonu Hojiqurbon qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlashdagi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi - pedagogik va psixologik metodlarni qo'llash orqali bunday bolalarning rivojlanishini samarali tashkil etadi. Tadqiqotda individual yondashuv, motivatsiya va emotsional qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ko'rsatildi. Maqolada an'anaviy va zamonaviy metodlar solishtiriladi. Ishda pedagogik kuzatuvlar va ilmiy manbalar tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, individual va guruh usullari samaradorlikni oshiradi. Shuningdek ota-ona va pedag o'rtasidagi hamkorlik muhim ekanini aniqlangan tadqiqot bunday yondashuvlar orqali bolalarning ijtimoiy va akademik faoliyatini yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Ishning xulosasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlashda eng samarali vositalardir. Mazkur maqola pedagoglar, psixologlar va ta'lim mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so'zi:** *Qiyin tarbiyalanadigan bolalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, individual yondashuv, motivatsiya, emotsional qo'llab-quvvatlash, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy integratsiya.*

### **KIRISH QISMI:**

Bugungi globallashuv davri bolalarning tarbiyalanishi va ularning shaxsiy rivojlanishi masalan pedagogika fanida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib bormoqda. Mashhur pedagog V.A. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek: " Har bir bolaning qalbi o'ziga xos olgandir. Uni anglash uchun esa avvalo o'qtuvchining qalbi tarbiya topgan bo'lishi kerak. " Ushbu fikr zamonaviy pedagogning bolalarga individual yondashishi, ularning psixologik xususiyatlarini chuqur bilishi va tarbiya jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishi zarurligini ko'rsatadi.<sup>1</sup> Shuningdek L.S. Vygotskiy ta'lim va tarbiya jarayonida insonning ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi eng muhim omil ekanligini alohida qayd etadi.<sup>2</sup> O'rta asr sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino esa bolaning shaxs sifatida shakllanishida tarbiyaning o'rni haqida so'z yuritarkan, tarbiya jarayonining uzluksiz bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Hozirgi vaqtda "qiyin tarbiyalanadigan" deb baholanadigan bolalar sonining ortib borishi ijtimoiy psixologik muhit, oilaviy tarbiya, kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji shuningdek, ta'lim tizimida kuzatilayotgan yangilanishlar bilan chambarchas bog'liqdir.<sup>3</sup> Shu sababli ushbu mavzu pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlash jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek ularning kelib

chiqish sabablari, ularga ta'sir etuvchi omillar, shaxsiy rivojlanish jarayonida pedagogning o'rni, oilaning ta'siri va maktabning tarbiya strategiyalari yoritiladi. Tadqiqot aynan pedagoglar, maktab amaliyotchilari, psixologlar, ota-onalar hamda bu soha bo'yicha ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

### **ASOSIY QISM:**

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning xulq-atvori, ular bilan

ishlashda yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy muammolar pedagogik muammolar pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. "Qiyin tarbiyalanadigan bolalar" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Ba'zi mutaxassislar bu atamani bolalarning salbiy xulq-atvoriga nisbatan qo'llasalar, boshqalar esa uni murakkab, o'ziga xos xarakteri bo'lgan, lekin to'g'ri yondashuv bilan ijobiy tomonga yo'naltirish mumkin bo'lgan bola sifatida talqin qiladi. Bu yerda eng muhim narsa - bunday bolani yomon emas, balki ehtiyojlari boshqacha bo'lgan shaxs sifatida ko'ra olishdir.

1. Suxomlinskiy, V.A. (1991). *Chelovek v detskom dome*. Moskva: Prosveshchenie.
2. Vygotskiy, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Ibn Sino. (2000). *Kitob al-Tibb [Medicine Book]*. Toshkent: O'zbekiston

Global tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida xulq-atvori buzilishlari taxminan 8%ni tashkil etadi. Masalan, AQSHda 3-17 yoshdagi bolalar orasida xulq buzilishlari holatlari bo'yicha so'rovlar natijasida, taxminan 8,9% Bolalar hayot davomida "xulq muammolari" bilan duch kelganligi aniqlangan. Bundan tashqari, maktab yoshidagi bolalar orasida hissiy va axloqiy muammolar 11,5%, xulq-atvor muammolari 9,7%, giperaktivlik 8,5% va tengdoshlari bilan moslashuvdagi muammolar 6% ni tashkil etadi. Shu ma'lumotlar qiyin tarbiyalanadigan bolalar masalasining nafaqat mahalliy, balki jahon miqyosida dolzarb ekanligini ko'rsatadi.4

Psixologlarning fikricha, bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: oilaviy munosabatlardagi nizolar, e'tibor yetishmasligi, nazoratning haddan ortiqligi yoki mutlaqo yo'qligi, pedagogning noto'g'ri yondashuvi, tengdoshlari bilan muloqotdagi muammolar, shuningdek bolaning tug'ma temperament xususiyatlari. Shu o'rinda Vygotskiyning mashhur fikri e'tiborga loyiq: "Bola rivoji ijtimoiy tajriba orqali amalga, tarbiya jarayoni esa uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishining eng samarali shaklidir. "Ya'ni, bola xulqi o'z-o'zidan shakllanmaydi, uni jamiyat tarbiyalaydi.5

Qiyin tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlashning zamonaviy pedagogik yondashuvlari. Pedagogik adabiyotlarda ko'plab usul va tamoyillar mavjud bo'lib, ular orasida eng samaralilar quyidagilar hisoblanadi:

1. Individual yondashuv: Har bir bola - bu alohida dunyo. Pedagog bolaning xarakteri, temperament turi, oilaviy tarbiyasi, qiziqishlari, bilim salohiyatini o'rgangan holda ish tutish lozim. Aynan individual yondashuv bolaning "qiyin" xulqining ildizini topishda yordam beradi. Misol uchun, tajribamda

4. CDC (2022). Children's Behavioral Health: National Data Report. Retrieved from <https://www.cdc.gov/mmwr/volumes/71/su/su7102a1.htm>

5. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

juda sust o'qiydigan, tez jahli chiqadigan, o'qtuvchilar bilan tez-tez tortishadigan bola bo'lgan. U bilan yakka tartibda ishlashni, bunga kichik vazifalar va ishonch bildirilishi orqali natijaga erishilgan.

2. Muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlash: Ko'pgina bolalar o'z muammolarini so'z bilan ifodalashni bilmaydi. Shu sababli pedagogning asosiy vazifasi - bolani tinglay olishdir. Noto'g'ri yo'lga kirgan o'quvchining birinchi ehtiyoji jazolash emas, tushunilishdir. Mashhur o'qtuvchi Sh. Amonov aytganidek: " Bolani tarbiyalashda avval uni tinglashni o'rganish kk. "6

3. Motivatsion yondashuv: Bola xatti-harakati ko'pincha uning motivatsiyasiga bog'liq. Agar bola o'qishda qiziqmasa, yaxshilik kutish qiyin. Shuning uchun zamonaviy ta'limda gamifikatsiya, o'yinli metodlar, interaktiv topshiriqlar orqali qiziqishni oshirish juda muhim.

4. Mustahkamlovchi va rag'batlantiruvchi tarbiya: Pedagog o'quvchining eng kichik muvaffaqiyatini ham e'tirof etishi kerak. Bu bola ongida " men uddalay olaman " ishonchni kuchaytiradi. Bu usul juda samarali.

Qiyin tarbiyalanadigan bolalar xulq-atvorining psixologik asoslari ham juda muhim va psixologiyada bola xulqi quyidagi omillar orqali shakllanishi isbotlangan: temperament, oila muhitidagi muloqot modeli, tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat, pedagogik ta'sir uslubi, emotsional intellekt darajasi. Goleman ta'kidlaganidek: " Shaxsning muvaffaqiyatida emotsional intellekt aql ko'rsatkichidan ham kuchliroq rol o'ynaydi". Shu sababli tarbiyada nafaqat bilim berish, balki bolaning his-tuyg'ularini boshqarish, o'zini anglashga o'rgatish juda muhim.<sup>7</sup>

Men amaliyotda uchratgan bolalardan biri shunday: juda faol, gapga kirishmaydigan, ko'pincha sinfda tartibni buzadigan bola. Boshlang'ichda un bilan ishlash juda qiyin edi. Lekin uni jazolash emas, balki uning kuchini trio yo'naltirish orqali natija ko'rindi. U jismoniy tarbiya darslarida yetakchi bo'la olishga

6. Amonov, Sh. (2015). Maktabda pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan

7. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

ishontirishdi, sport bilan shug'ullanishga rag'batlantirildi va natijada uning salbiy xatti-harakatlari kamaydi. Bu bola o'zini kerakli his qilsa, un o'zgaradi degan g'oyaning eng yaxshi isbotidir.

Shuningdek hikoyalar ham tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Masalan: "Oq bo'ri va qora bo'ri " masali tarbiyada juda ko'p qo'llanadi. Unda inson qalbida ikki bo'ri borligi, ulardan biri yaxshilikni, ikkinchisi esa yomonlikni ifodalashi va inson qaysi birini

"ovqatlantirsa", o'sha g'olib bo'lishi tasvirlanadi. Bu bolalarda o'zini boshqarish, irodani mustahkamlashga yordam beradi.

Qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalar:

1. Hukm chiqarishga shoshilmang. Avvalo sababini toping.
2. Jazodan oldin suhbat, tushuntirish va muloqotni qo'llang.
3. Har bir kichik muvaffaqiyatni rag'batlantiring.
4. Oilaviy hamkorlikni doimo yoga qo'ying.
5. Bolani emas, uning xatti-harakatini baholang
6. Tajovuzkorlik, agressiyani to'g'ri yo'naltirishni o'rgating.
7. Qiziqishlariga qarab topshiriq bering.

8. Dars jarayonida standard usullar bilan cheklanib qolmang. Natijada pedagogning o'zi ham tarbiyachi rolidan chiqib, maslahatchi, yo'l -yo'riq ko'rsatuvchi shaxsga aylanadi.

Menimcha, "qiyin bolalar yoq, balki ko'proq e'tibor talab qiladigan bolalar bor." Bunday bolalarda katta ijodkorlik, energiya, yetakchilik fazilatlari bo'lishi mumkin. To'g'ri yondashuv esa ularni jamiyatning ijodkor, salohiyatli shaxsiga aylantirishi mumkin. Tarbiya jarayonida pedagogning shaxsiy namunasi, tolerantlik, muloqot madaniyati, psixologik savodxonligi asosiy rol o'ynaydi.

#### **XULOSA:**

Ushbu maqolada qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlashning zamonaviy pedagogik yondashuvlari tahlil qilindi va bu masala nafaqat pedagogik balki psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan ham dolzarb ekanligi ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va motivatsiyani oshirish kabi metodlar bolalar bilan ishlashdagi muammolarni samarali hal qilish imkoniyatini beradi.

Asosiy qismida keltirilgan statistik va amaliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qiyin tarbiyalanadigan bolalarning xulq-atvoridagi salbiy tomonlar to'g'ri pedagogik yondashuv va oilaviy hamkorlik orqali sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga pedagogning sabri, e'tibori va shaxsiy namunasi bolaning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hikoyalar, masallar, qiziqarli misollar va interaktiv usullar bolalarni diqqatini jamlashga, faol ishtirok etishga va o'z xulqini boshqarishga undaydi.

Maqolada tavsiya etilgan yondashuvlar va amaliy choralar bolalarning ijobiy xulqini shakllantirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va murakkab muammolarni hal qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga pedagoglar, psixologlar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun maqola amaliy qo'llanma sifatida ham foydalidir. Chuni u bolalarning ijtimoiy moslashuvini oshirish, hissiy inteletini rivojlantirish va salbiy xatti-harakatlarini konstruktiv yo'naltirish imkonini beradi. Shuningdek, maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, qiyin tarbiyalanadigan bolalar bilan ishlashda pozitiv pedagogik yondashuv, doimiy kuzatuv va samarali kommunikatsiya muhim omil bo'lib, bu jarayonda nafaqat bola, balki pedagog va ota-onaning ham o'rni oshadi. Umuman olganda, maqolada taqdim etilgan tavsiyalar va yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali qilish, bolalarning ijtimoiy va akademik

salohiyatini rivojlantirish hamda ularni jamiyatga mos shaxslar sifatida yetishtirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
2. Ibn Sino. (2000). Kitob al-Tibb [Medicine Book]. Toshkent: O'zbekiston.
3. Makarenko, A.S. (1982). Pedagogicheskoe nasledie. Moskva: Pedagogika.
4. Suxomlinskiy, V.A. (1991). Chelovek v detskom dome. Moskva: Prosveshchenie.
5. Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Amonov, Sh. (2015). Maktabda pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan.
7. CDC (2022). Children's Behavioral Health: National Data Report. Retrieved from <https://www.cdc.gov/mmwr/volumes/71/su/su7102a1.htm>
8. PubMed Central (2021). Prevalence of Emotional and Behavioral Problems in School-aged Children. Retrieved from <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8281858/>
9. PubMed (2014). Behavioral and Emotional Disorders in Children. Retrieved from <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24973768/>